

ALOVUDDIN MUHAMMAD XORAZMSHOH HUKMRONLIGI

Azimova Aziza

O'zMU Tarix fakulteti tarix yo'nalishi

I bosqich talabasi

Annotatsiya. *Maqolada Takish va Turkon Xotun o'g'li bo'lgan, Buyuk Xorazmshoh Jaloliddin Manguberding otasi Qutbiddin Muhammadning hayoti, hukmronlik faoliyati, harbiy yurishlari va uning davrida mamlakatdagi ahvol yoritilgan. Mo'g'ullar va sovetlar davrida yozilgan asarlarda Sulton Muhammad salbiy qahramon obrazida gavdalantirilgan bo'lsa-da, u ilimli, diniy bilimlarni ham yaxshi tushunadigan, olimlar majlislarida qatnashib ularga yordam qiluvchi hukmdor bo'lgan. Aks holda bu shaxs bunday ulkan davlatni 21 yil boshqara olmagan bo'lardi. Shunday bo'lsada, bir qator salbiy sifatlari Aloviddin Muhammadning obro'yi pasayishiga sabab bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *Xorazmshoh, g'uriylar, qoraxitoylar, xutba, mo'g'ullar, tanga*

Abstract. *The article describes the life of Qutbuddin Muhammad, the son of Takish and Turkon Khotun, the father of the Great Khorezmshah Jalaluddin Manguberdi, his ruling activities, military campaigns, and the situation in the country during his time. Although Sultan Muhammad was embodied in the image of a negative hero in the works written during the Mongol and Soviet eras, in reality he was a learned ruler who had a good understanding of religious knowledge and attended meetings of scholars and helped them. Otherwise, this person would not have been able to rule such a huge country for 21 years. Nevertheless, a number of negative qualities caused the decline of Alavuddin Muhammad's reputation.*

Keywords: *Khorezmshah, ghurians, karakhitays, khutba, mongols, Gurganj, coin*

Аннотация. *В статье описывается жизнь Кутбиддина Мухаммада, сына Такиш и Туркон Хотун, отца Великого Хорезмшаха Джалалуддина Мангуберди, его правящая деятельность, военные походы, положение в стране в его время. Хотя султан Мухаммед воплощался в образе отрицательного героя в произведениях, написанных в монгольское и советское время, в действительности он был ученым правителем, хорошо разбирающимся в религиозных знаниях и помогавшим им, участвуя в сходах ученых. Иначе этот человек не смог бы управлять такой огромной страной 21 год. Однако ряд отрицательных качеств вызвал падение репутации Аловуддина Мухаммада.*



Ключевые слова: *Хорезмшах, гурийцы, каракитайцы, хутба, монголы, Гургандж, монета*

Hijriy 596-yil (milodiy 1200-yil 3-avgust)da Gurganj shahrida aholi va davlat amaldorlari ishtirokida Xorazmshohlar davlati taxtiga Qutbiddin Muhammad o'tirgan. U keyinchalik otasining Alovuddin laqabini qabul qiladi va shu nom bilan taniladi. Keyinchalik Ikkinchi Iskandar(Iskandari Soniy), ikkinchi sulton Sanjar nomlarini ham olgan. Hukmronligi boshlarida toj-u taxt uchun kurashlar avj olib g'uriylar Xorazmga qarashli yerlarga hujum qilib tursa-da, hokimiyatni saqlab qola olgan. Hattoki, qo'l ostidagi ba'zi hududlarning ham unga qarshi harakatlari bo'lib turadi. Masalan, sobiq Nishopur voliyasi bo'lgan Hindu-xon Marvda unga qarshi qo'shin to'play boshlaydi. Lekin Alovuddin Muhammad unga qarshi lashkar yuborganidan xabar topib Xorazmshohning kuchli raqibi bo'lgan G'ur sultoni G'iyosiddin G'uriy huzuriga qochadi. Buning natijasida u Xorazmshohlar davlatidagi o'zaro kurashlardan foydalanib qoladi. Natijada sulton G'iyosiddin Xurosonning Marv, Saraxs, Niso, Obivard, Tus kabi shaharlarini egallashga muvaffaq bo'lgan. Lekin keyinchalik qoraxitoylar yordami bilan g'uriylar tor-mor keltiriladi. G'uriylarning boyliklari, mol-mulki qoraxitoylarga beriladi. Shahobiddin al-G'uriy va Alovuddin Muhammad o'rtasida esa 1205-yil yanvar oyida tinchlik shartnomasi imzolandi.

Tashqi dushmanlardan tashqari mamlakat ichidagi mahalliy hukmdorlar ham Alovuddinga bo'ysunmay mustaqillikka intilishgan. Hattoki, Hirot hokimi bo'lgan Husayn ibni Hurmil Xorazmshohga sodiq kishilarni qamoqqa oladi va uning nomi bilan xutba o'qish, tanga zarb qilishni man qiladi. Uning o'rniga G'uriylar sultoni Mahmud nomi bilan xutba o'qish va tanga zarb qilishga buyruq beradi. Oqibatda Xorazm shohi uni qatl etish uchun buyruq berishga majbur bo'ladi. Bu kabi holatlar tabiiyki, mamlakatning zaiflashib borishiga sabab bo'ladi.

Alovuddin Muhammad qoraxitoylar bilan ham urush olib borishga majbur bo'ladi. Movarounnahrning turli hududlari va e'tiborli kishilari Xorazmahohga murojaat qilib qoraxitoylarga qarshi yordam so'rashi ham bunga sabab bo'lgan. Ular bu urushda Xorazmshoh bilan ittifoqchi bo'lishlarini, shu paytgacha qoraxitoylarga berib kelgan hamma narsalarini endi unga berishini, uning nomi bilan xutba o'qib tangalar zarb qilishlarini aytishadi. Jang boshlangach Xorazm qo'shinlari qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay tor-mor bo'lishadi. Xorazm jangchilari ko'pchiligi jang maydonida halok bo'lishadi, ko'pchiligi asir olinadi. Alovuddin Muhammadning o'zi ham asirga tushib qoladi. Alovuddin Muhammadning yo'qolib qolganligi haqida xabarlar tarqalib, bundan boshqa amirlar mustaqil bo'lishga intilishadi. Lekin u Ibni Mas'ud yordamida asirlikdan qutulishga muvaffaq bo'lgan. Keyinchalik Xorazmshoh



qoraxitoylar ustidan g'alaba qozonadi va uning bu g'alabasi islomning "kofirlar" ustidan g'alabasi sifatida baholanadi. Bu g'alaba Xorazmshohlar davlati tashqi siyosatining eng katta yutug'i bo'lib qoldi.

Shoh Iskandari Soniy laqabini olish bilan birga saroyda Zulqarnayn navbasini (shoh kirishi sharafiga chalinadigan musiqiy madhiya) joriy etadi va uni ijro qilish uchun bo'ysundirilgan hududlar hokimlarini tayinlaydi. Uni 27 ta oltin nog'oralarda ijro qilishgan. Bu Alovuddin Muhammadni o'z davrining buyuk hukmdori bo'lganligidan nishonadir. Bu shon-shuhrat unga kamlik qilib, saljuqiylar sulton Sanjarning uzoq vaqt davomida hokimiyatni boshqarganiga havas qilib o'ziga Sanjar II deb yozilgan muhr tayyorlashga buyruq bergan. Uning bu yangi nomi o'g'illarining unvonida ham o'z aksini topadi. Alovuddin Muhammad davrida Xorazmshohlar davlati shimolda Orol, g'arbda Kaspiy dengizigacha, janubda Iroq va G'aznagacha, sharqda Yettisuvgacha kengaygan. Hududlarning katta maydonlarga cho'zilganligi ham boshqaruvni qiyinlashtirgan albatta.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorazmshohlar davlati o'z davrida buyuk davlatlardan bo'lganligi sababli olimlarda bu davlatga bo'lgan qiziqish katta. Turli olimlar Alovuddin Muhammad shaxsiyatiga turlicha yondashishgan.

Ibn al-Asir "Al-komil fit-tarix" asarida Sulton Muhammadni "Saljuqlardan keyin hech bir hukmdor bunday katta hududlarni egallagan saltanatni o'zida jamlay olmagan edi. Qoraxitoylar ustiga yurib ularni yurtini ham o'z tobeligiga oldi. Uning barcha ishi davlatni rivojlantirmoq va uni qo'riqlamoq edi",- deya ma'lumot beradi. Atomalik Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy" asarida esa uning ahmoq va mayxo'r sifatida tasvirlanishi mo'g'ullar o'zining bosqinchilik harakatlarini oqlab ko'rsatish yo'lidagi harakati deb tushuniladi. Sovetlar davrida ham shu holat-Sulton Muhammadni salbiy qahramon sifatida tasvirlash davom etgan.

Mo'g'ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatida o'ziga xos ikkihokimlik tuzumi yuzaga kelgan bo'lib, mutlaq hukmdor Alovuddin Muhammad hisoblansada, omasi Turkon Xotunning ta'siri katta bo'lgan. Turkon Xotun nihoyatda qattiqqo'l bo'lib Takash davrida ham o'z ta'sirini sezdirib turgan edi. Uning qo'lidagi muhrda "Umidim faqat Ollohdan" degan yozuv bo'lib, bu muhr Alovuddinning muhridan ham qudratliroq bo'lgan. Mamlakatda turli siyosiy o'yinlar boshlangan. Onasiga bo'lgan mehri va mamlakatdagi barcha amirlar uning urug'idan bo'lganligi sababli Alovuddin Muhammad onasiga qarshi chiqqan olmagan. Bunday holatlar mo'g'ullar istilosi arafasida davlatdagi ahvolni beqarorlashtiradi, ig'volar, ichki nizolar kuchayib ketadi. Natijada Chingizxon katta to'siqlarga uchramay Xorazmshohlar yeriga bostirib kiradi.



Mo'g'ullarning Xorazmshohlarga qarshi yurishini keltirib chiqargan sabablardan yana biri sifatida Alovuddin Muhammad o'zini olamning yakka hukmdori deb o'ziga ortiqcha baho berganligini aytish mumkin. Chingizxon ham bu xavfli yurishni bir lahzada boshlagan emas. U Alovuddin Muhammadning qudrati xayoliy narsaga aylanib qolganini bilganidan so'nggina hujumni boshlaydi. Xorazmshoh juda katta harbiy qo'shinga ega bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, qo'shin birlashtirilmagani, tarkibiy qismlarga ham to'g'ri ajratilmagani, to'g'ri taktika qo'llay olmaganiga unga pand beradi. Bu esa ulkan davlatning inqiroziga olib keladi.

Xorazmshoh sultonlar o'z davlatlarini obod va farovon bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilishgan. Xususan Alovuddin Muhammad davrida ham poytaxt Gurganj yuksalgan. Lekin mo'g'ullar bosqini davrida Gurganj suvga bostirilib vayron qilinadi. Uning sharafiga Arron va Ozarbayjondan, to Darband va Shirvongacha bo'lgan masjidlarda xutba o'qilgan. Bundan tashqari, Takish o'g'li Alovuddin Muhammad davrida zarb etiladigan tangalarning hududi ham kengaygan, butun oltin tangalar bilan birga yarimta tangalarning ham uchrashi davlatning iqtisodiy siyosatida oltin og'irligi, qimmatini o'zgarib turganini ko'rsatadi. Avval 30 ga yaqin viloyat va shaharlarda Xorazmshohlar nomiga tangalar zarb qilingan bo'lsa, uning davrida yanada kengaygan.


Turkon Xotun ta'sirida Alovuddin Muhammad katta o'g'li Jaloliddinni emas, Qutbiddin O'zloqshohni taxt vorisi qilib tayinlaydi. U Chingizxon hujumidan qochib Kaspiy dengizidagi Ashura oroliga borib qolgan. U yerda qattiq betob bo'lib qoladi va umrining oxirlarida qarorini o'zgartirib Jaloliddin Muhammadni valiahd deb e'lon qiladi. Vafot etgach o'sha yerda dafn etilgan. Keyinchalik Jaloliddinning farmoyishiga ko'ra, Sulton Muhammadning jasadi Isfahondagi Xorazmshohlarning xotirasiga qurilgan madrasaga ko'mish uchun Ardahn qal'asiga keltirilgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Xorazmshoh Alovuddin Muhammad davri to'xtovsiz urushlar girdobida o'tgan. Tashqi hamda ichki dushmanlar unga qarshi turishgan. Tabiiyki, bu urushlar davlat rivojini to'xtatib qo'ygan. Barcha hududlarga o'zining yaqinlarini tayinlaganligi ham boshqaruvni qiyinlashtirgan. Janglarda askarlarning son jihatidan ustunligi qo'l kelgan. Turli hiyla, pistirma, jang taktikalaridan xabarsiz bo'lgan. Lekin 21yil davomida mamlakat obodonchiligi, iqtisodiyoti o'sishiga o'z hissasini qo'shgan tarixiy shaxs hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent. 2001. 137-b
2. Ziyov Bunyodov. Anushtegin Xorazmshohlar davlati. Toshkent 1998, 87-b



- 
3. Iso Jabborov. Buyuk Xorazmshohlar davlati. 1999. 120-122-b
 4. Halim Boboyev va b. O'zbek davlatchiligi tarixi. 2009. 45-b
 5. Wikipedia

